

## DAVLAT KADASTRLARINI TUZISH VA YURITISHDA KOORDINATALAR TIZIMLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10014779>

**M.Mengliyeva**

*"TIQXMMI" MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar  
instituti o'qituvchisi*

**M.Maxmudov**

*"TIQXMMI" MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar  
instituti o'qituvchisi*

**M.Xudoynazarova**

*"TIQXMMI" MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar  
instituti o'qituvchisi*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada davlat kadastrlarini tuzish va yuritishda koordinatalar tizimlaridan foydalanish masalalari, yer resurslaridan foydalanishni boshqarish tizimi bozor iqtisodiyotini rivojlantirish sharoitida rang-barang moddiy va boshqa boyliklar ishlab chiqarishning jamiyatning bugungi kun talablariga javob beradigan yerdan foydalanish tizimini yaratish yoritilgan.*

### **Аннотация**

*В данной статье рассматриваются вопросы использования систем координат при составлении и ведении государственных кадастров, система управления использованием земельных ресурсов в условиях развития рыночной экономики для создания системы землепользования, отвечающей современным требованиям общества к производству разнообразных материальных и иных ресурсов.*

### **Abstract**

*This article covers the issues of the use of coordinate systems in the construction and maintenance of State cadastres, the management system of the use of land resources in the conditions of the development of a market economy, the creation of a land use system that meets the requirements of society today for the production of colorful material and other assets.*

### **Kalit so`zlar**

*koordinata, davlat kadastrlari, oqilona yerdan foydalanish, yerlardan oqilona foydalanish muammosi.*

**Kirish.** Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi davlat yer kadastrining koordinatalar tizimi bo'lib Krasovskiy ellipsoidi parametrlari asosida qurilgan 1942 yilgi referens koordinatalar tizimi xisoblanadi (SK-42). Shuningdek, shaharlar va aholi punktlaridagi geodezik ishlar, jumladan kadastr syomkali mahalliy koordinatalar tizimida ham olib boriladi. Davlat kadastrlari yagona tizimi (DKYAT) ma'lumotlar ba'zasini shakllantirish uchun kadastr karta va planlari elektron (raqamli) shaklda ArcGIS oilasiga mansub dastur formatida 1942 yilgi davlat koordinatalar tizimida yoki mahalliy koordinatalar tizimida tuman darajasida umumlashtirilgan holda, tuman elektron raqamli kartasining yagona qatlami sifatida aholi punktlari hududlari bo'yicha Geodeziya va kartografiya milliy markaziga, boshqa hududlar bo'yicha "YERGEODEZKADASTR" ga taqdim qilinadi.

**Muammo:** Respublikamiz hududi bo'yicha davlat geodezik koordinatalar tizimining tarqatuvchisi bo'lib davlat geodezik tamoqlari (DGT) xizmat qiladi.

DGT umumiyoq koordinatalar tizimidagi geodezik punktlarning yig'indisi bo'lib, joyda uzoq vaqt mustahkamligini va turg'unligini ta'minlovchi markazlar bilan mahkamlanadi.

O'zbekiston Respublikasining davlat geodezik tarmog'i Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) hududidagi umumiyoq geodezik tarmoqning fragmenti hisoblanadi va quyidagi qismlarni o'z ichiga oladi:

- astronomo-geodezik tarmoq (AGT) - yopiq poligon qatori ko'rinishidagi 1 sinf triangulyatsiyasi, 2 sinf triangulyatsiyasi qatori va ularni to'ldiruvchi 2 sinf triangulyatsiya tarmog'i;

- 3 va 4 sinf geodezik zichlash tarmog'i (GZT);

AGT taxminan 4000 punktdan (01.01.2008 y.) iborat bo'lib quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- "Osnovnimi polojeniyami o postroyenii gosudarstvennoy opornoy geodezichesoy seti SSSR" (1939 y.) va "Polojeniya o gosudarstvennoy geodezicheskoy seti SSSR" (1948 y.) loyixasiga muvofiq qurilgan 1 sinf triangulyatsiyasi poligonlari qatori, shuningdek ilgari qurilgan 1 sinf triangulyatsiyasi;

- "Osnovnimi polojeniyami o postroyenii gosudarstvennoy geodezicheskoy seti" (1954 va 1961 yy.) va "Instruksiyey o postroyenii gosudarstvennoy geodezicheskoy seti" (1966 y.) ga muvofiq qurilgan 1 va 2 sinf triangulyatsiyasi poligonlari qatori va 2 sinf triangulyatsiyasi tarmog'i.

Respublikamizda mavjud geodezik tayanch tarmoqlarini qurish ishlari 1939 yildan boshlangan va yuqorida aytib o'tilganidek koordinatalari 1942 yilgi tizimda aniqlangan.

1942 yilgi geodezik koordinatalar tizimi Sobiq Ittifoq hududidagi 87 ta 1 sinf poligonlarini tenglashtirish natijasida hosil qilingan (1946 y.). Olib borilgan tenglashtirishlar natijalari asosida 1946 yil 7 aprelda SSSR Vazirlar mahkamasi qaroriga binoan 1942 yilgi koordinatalar tizimi Sobiq Ittifoq tarkibiga kiruvchi davlatlar hududi uchun yagona koordinatalar tizimi sifatida qabul qilindi. 1942 yilgi koordinatalar tizimi uchun boshlang'ich datum bo'lib Pulkovo observatoriyasidagi nuqta olingan (1-rasm).



*1-rasm. SK-42 koordinatalar tizimining boshlang'ich nuqtasi*

Ushbu koordinatalar tizimi asosida katta yarim o'qi 6 378 245 m ga, siqilish koyeffitsiyenti 1:298,3 ga teng Krasovskiy ellipsoidi parametrlari yotadi. Ushbu koordinatalar tizimida koordinatalar geodezik kenglik – B va geodezik uzoqlik – L ko'rinishida taqdim qilinadi. Uchinchi koordinata sifatida aniqlanuvchi balandlik – H – Boltiq balandliklar tizimida aniqlanadi.

Bizning mamlakatimizda 1942 yilgi koordinatalar tizimida turli maqsadlar uchun kartalar tuzishda Gauss-Kryugerning teng burchakli yoki konform proyeksiyasiidan foydalaniladi.

Gauss-Kryuger to'g'riburchakli ko'ndalang-silindrik proyeksiyasi ellipsoid sirtida nuqtalarning geodezik koordinatalari bilan shu nuqtaga tegishli tekislikdagi to'g'ri burchakli koordinatalarini o'zaro bog'lash imkonini beradi.

Bu proyeksiyani qo'llashda yer yellipsoidi sirti fikran meridianlar bilan zonalarga bo'linadi. Zonalar Grinvich meridiandan boshlab uzoqlik bo'yicha 1:10000 va undan mayda masshtablardagi kartalar uchun  $6^{\circ}$  dan, 1:10000

masshtabdan yirik masshtabli kartalar uchun esa  $3^{\circ}$  dan o'tgan meridianlar bilan chegaralangan.

Xar bir zonaning o'rtasidan o'tuvchi meridian zonaning o'q meridiani deyiladi. Ellipsoidning xar bir zonasini aloxida tekislikka konform qilib o'tkaziladi.

So'nggi yillarda butun dunyo bo'yicha olib borilayotgan kosmik tadqiqotlar natijasida geodeziya, kartografiya, yer tuzish va davlat kadastro soxalariga kosmik uskunalar va yangi o'lhash usullarining kirib kelishi xamda o'lhashlar aniqlik darajasining oshganligi tufayli mavjud davlat geodezik tarmog'idagi kamchiliklar yuzaga chiqdi. O'z navbatida, an'anaviy yer usti geodezik o'lhash usullari asosida yaratilgan 1942 yilgi koordinatalar tizimi foydalanuvchilar talabini to'la qanoatlantirmay qo'ydi. Xozirda ushbu koordinatalar tizimidan ko'pchilik davlatlar foydalanmay qo'ydi.

1942 yilgi koordinatalar tizimidagi kamchiliklar global navigatsion sun'iy yo'ldosh tizimlariga (GNSYT) asoslangan geodezik texnologiyalar yordamida zamonaviy davlat geodezik tarmoqlarini qurish orqali bartaraf etilishi mumkin.

Yuqoridagilarni xisobga olib, shuningdek davlat geodezik tarmoqlari aniqligini oshirish va ularni rivojlantirish shuningdek respublikamiz xududi uchun WGS-84 umumer koordinatalar sistemasini joriy qilish maqsadida so'nggi yillarda sun'iy yo'ldosh navigatsion tizimlariga asoslangan davlat geodezik tarmoqlarini qurish va rivojlantirish borasida respublikamizda loyixalar ishlab chiqilmoqda va amaliyotga tadbiq etilmoqda.

**Xulosa.** Geodezik tayanch nuqtalari tarmog'ini yaratish yoki takomillashtirish yer uchastkalari va mulk to'g'risidagi barcha mavjud ma'lumotlarni joyga bog'lashni ta'minlash uchun amalga oshiriladi. Viloyat Yergeodezkadastr organlari tomonidan ulardagi mavjud ma'lumotlarni tayanch nuqtalarining respublika tarmog'i bilan bog'lash tavsiya qilinadi. Barcha yer uchastkalari va boshqa ko'chmas mulk obyektlarini identifikatsiyalash uchun ularni joyga bog'lashning yagona va o'ziga xos tizimini kiritish lozim bo'ladi. Agar ko'chmas mulk obyektlarining chegaralari tegishli geodezik belgilar bilan belgilangan bo'lsa, yuqori aniqlikdagi o'lhashlar ko'pincha maqsadga muvofiq hisoblanmaydi. Fotogrammetrik uslublar, ortofotosuratga olishni ham o'z ichiga olgan holda, kadastro kartalarining ko'plab yig'ma varaqlarini tuzishda qo'l keladi. Ulardan shuningdek kartaga kiritiladigan obyektlar havodan turib olingan fotosuratlarda aniq ko'rindigan sharoitlarda ko'chmas mulk obyektlarini detalli o'lhashlarda foydalaniishi mumkin. Yer uchastkalari va ko'chmas mulk to'g'risidagi ma'lumotlarni kompyuterlashtirish institusional muammolar bilan ham, texnik muammolar bilan ham tutashib ketadi. Hukumat yuqorida ko'rsatilgan

muammolarning birinchisini ham, ikkinchisini ham hal qilish bilan shug'ullanishi lozim. Ma'lumotlarga ishlov berishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratishda tizimga ma'lumotlarning qaysi kategoriyalarini kiritishni, ular boshqa registrlar bilan qanday munosabatlarda bo'lishini, ma'lumotlarga kirish qanday ta'minlanishini va ma'lumotlar qanday qilib yangilanishini aniqlash zarur bo'ladi. Yer resurslarini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish katta miqdordagi mablag'lar va vaqt sarfini talab qiladi, uni to'liq foydalanishga kiritish uchun esa bir necha yil talab qilinadi. Ma'lumotlarni qayta shakllantirish arzonga tushmaydi, xarajatlarga esa munosib baho berish lozim bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Беленков О.В. Методика установления местных систем координат // Геопрофи. – 2009. – № 2. – С. 32-34.
2. Бородко А.В., Макаренко Н.Л., Демянов Г.В. Развитие системы геодезического обеспечения в современных условиях // Геодезия и картография. – 2003. – № 10. – С. 7-13.
3. Qurbanov E.Q, Bobojonov A.R, Raxmonov Q.R. "Yer kadastro asoslari" o'quv qo'llanma, -Toshkent, 1999.
4. Muborakov X. Axmedov S. Geodeziya va kartografiya. Toshkent, "O'qituvchi" 2002.
5. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
6. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)
7. [www.google.uz](http://www.google.uz)